

O'ZBEK TILIDA JUFT OTLAR VA ULARNING TASNIFI

*Safarova Hayitgul Turg'un qizi**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti filologiya
va tillarni o'qitish fakulteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi juft otlarning yasaliishi, tuzilishi, tarkibiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: juft otlar, ot so'z turkumi, so'z yasaliishi, leksik-semantik birlik, grammatik tenglik, semantik munosabat, sinonim juftlik, antonim juftlik.

KIRISH

O'zbek tili juda boy va rang-barang leksik imkoniyatlarga ega bo'lgan til hisoblanadi. Unda xalqning tarixi, madaniyati, urf-odati va dunyoqarashi yaqqol aks etadi. Tilimizda so'z boyligining salmoqli qismini ot so'z turkumi tashkil etadi. Otlar orqali shaxs, predmet, hodisa, joy, vaqt va mavhum tushunchalar nomlanadi. Ayniqsa, oddiy, yasama, qo'shma, juft va qisqartma otlarning keng qo'llanishi o'zbek tilining ifoda imkoniyatlarini yanada boyitadi. Shu bois ot so'z turkumi o'zbek tilida muhim o'rin egallab, nutqning mazmunan boy va aniq bo'lishini ta'minlaydi.

METODOLOGIYA

Kim?, nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'lib, mavjudot, narsa, joy, voqea, jarayonni atovchi leksik birlik-ot. Otlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy otlarga bo'linadi. Juft otlar o'zbek tilida leksik-semantik birlik sifatida muhim o'rin tutadi. Ular o'zbek tilining milliy leksik qatlamida qadimdan mavjud bo'lib, xalq og'zaki ijodida, badiiy adabiyotda, rasmiy va norasmiy nutqda keng qo'llanib kelinadi. Ular tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, nutqda jamlash, umumlashtirish, kuchaytirish ma'nolarini ifodalaydi. Juft otlar mazmun jihatidan ham, shakl jihatidan ham, murakkab sintaktik birlik bo'lib, o'zbek tili so'z yasaliishining produktiv usullaridan biri hisoblanadi. Azim Hojiyev shunday deydi: "Juft so'zlarning yasaliishida qat'iy bir prinsip yo'q. Shuning uchun ham juft so'zlarning yasaliishi haqida aniq qoida-ta'rif berib bo'lmaydi. O'zbek tilida juft so'z yasash uchun qo'llanadigan vositalar yo'q. Shuning uchun ham juft so'z yasash deyishdan ko'ra juft so'zning hosil bo'lishi deyish har jihatdan to'g'ri bo'ladi". Juft shakl komponentlari bir xil shakldagi otlardan tashkil topadi, ular bir-biri bilan tenglashish yo'li orqali bog'lanadi. Har bir komponent o'z urg'usiga ega bo'ladi: Peshindan keyin atrofi taxta devor bilan omonat o'ralgan qurilish hovlisiga chang-to'zon ko'tarib, "ZIL" mashinasi kirib keldi (O'. Hoshimov).

Juft otlar ikki asosning qo'shimchasiz birikishidan hosil qilinadi. Juftlikka kirgan

soʻzlar grammatik jihatdan ham teng huquqli boʻlib, har ikkisi bir butun soʻz yaratadi. Bunda juft otlar koʻplik qoʻshimchasini, egalik qoʻshimchasini, kelishik qoʻshimchasini qabul qilayotganda ham bir butun holda oʻzgaradi : Mushkul damlarda imkonini, insonligini saqlab qolgan ota-onalarimiz, aka-opalarimizning hayoti bugungi zamonda bizga oʻrnak boʻlsa ne ajab? (Oʻ. Hoshimov)

Juft otlar tarkibiga koʻra quyidagi koʻrinishlarga ega:

I. Har ikki qismi ham mustaqil ishlatiladigan juft otlar :

1. Qismlari oʻzaro sinonim: baxt-saodat, gʻam-tashvish, fahm-farosat, es-hush, aql-idrok, rahm-shafqat.

2. Qismlari oʻzaro antonim: oʻgʻil-qiz, chol-kampir, yoz-qish, avlod-ajdod, savol-javob.

3. Qismlarining maʼnosi yaqin: ariq-zovur, baxt-taxt, hisob-kitob, hol-jon, qoʻy-qoʻzi.

II. Qismlaridan biri mustaqil holda ishlatilmaydigan juft otlar: bozor-oʻchar, qoʻni-qoʻshni, latta-putta, yigʻi-sigʻi, irim-sirim.

III. Har ikkala qismi ham mustaqil ishlatiladigan juft otlar: adi-badi, ashqol-dashqol, lash-lush, ikir-chikir, qalangʻi-qasangʻi.

Buni gaplar misolida koʻrib chiqamiz.

Qismlari oʻzaro sinonim juft otlar:

Bir jumla bilan ifodalash mumkin boʻlgan maqsad-muddaoni ikki sahifada qoʻyadosh jumlar oʻrab yoza oluvchi kishi yaxshi munshi va yaxshi maktub yozuvchi kishi hisoblanar edi (S. Ayniy).

Qismlari oʻzaro antonim juft otlar:

Lekin doʻst-dushman orqa-oldingda Toʻramurodni Hamronrafiq oʻldirgan deb gap tarqatdilar (S. Ayniy).

Yuqoridagi turlardan tashqari butun-qism munosabatidagi juft otlar ham bor:

Maktab ichi chang-tuproq va xas-xashak bilan toʻldi (S. Ayniy).

Ikki ot juftlashsa, juft ot tuzilavermaydi, u boshqa turkumga oʻtishi ham mumkin. Masalan, tun-kun, kecha-kunduz kabi soʻzlar juft otlar emas, balki ravishdir. Demak, juft soʻzning turkumini komponentlari qaysi turkum soʻzi ekanidan kelib chiqib emas, balki juft soʻzdan yaxlitligicha anglashiladigan maʼnoga suyanib belgilash lozim. Feʼllarning, sifatning juftlashib, otga oʻtishida ham xuddi shu talabga amal qilinadi. Ikki sifat yoki ravish bosh formasida, yaʼni qoʻshimchasiz holatda juft otga oʻtadi: issiq-sovuq, achchiq-chuchuk, oq-qora, kam-koʻst kabi. Bular ham oʻtga xos grammatik formalarni nutqda yaxlitligicha oladi: issiq-sovugʻi, kam-koʻstimiz.

Feʼllar juftlashib, ot tuzilganda ham juftlashuvchi qismlar feʼllikning ayni bir funksional formasida boʻladi, yaxlitligicha ot leksemaga tenglashadi va nutqda otga xos grammatik formalarni oladi. Koʻpincha harakat nomi: yurish-turish, yozuv-chizuv, tikish-bichish va h.k.

XULOSA

Juft otlar tilning ichki imkoniyatlari asosida shakllangan va uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida mustahkamlangan leksik birliklardir. Ular nutq jarayonida alohida soʻzlarning oddiy qoʻshilishidan koʻra kengroq maʼnoni ifodalaydi hamda fikrning taʼsirchanligini oshiradi. Juft otlarning tuzilishi va maʼno munosabatlarini tahlil qilish oʻzbek tilida soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi va semantik yaxlitlik masalasini yoritishga imkon beradi. Shu jihatdan juft otlar tilshunoslik tadqiqotlarida muhim tadqiqot obyekti boʻlib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- 1.Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili . -Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. -416b.
- 2.Hojiyev A. Oʻzbek tilida qoʻshma, juft va takroriy soʻzlar. -Toshkent: Oʻqituvchi, 1963. -144b.
- 3.Oʻzbek tili grammatikasi I tom. -Toshkent: Fan, 1975. -636b.
- 4.Sadriiddin A. Qisqacha tarjimayi holim. -Toshkent: OʻzSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.
5. Hoshimov Oʻ. Ikki eshik orasi. -Toshkent: Sharq, 2012. -624b.